

Jafarov Botir Sattarovich

Namangan davlat universiteti professori, filologiya fanlari diktori

QADIMGI TURKIY MANBALAR TADQIQINING NAZARIY MUAMMOLARI

Annotatsiya. Qadimgi turkiylarning yuzaga kelishi, “turk” soʻzining maʼnolari, turkiy xalqlar tilli va adabiyotini ilmiy ravishda oʻrganish anʼanasining vujudga kelishi, bu anʼananing qaror topishida klassik arab filologiyasi boʻyicha tahsil koʻrgan filolog olimlarning ilmiy faoliyati hamda turkiy tilshunoslik ayniqsa lugʻatchilik sohasida ijod qilgan buyuk ajdodlarimiz va ularni asarlarining oʻziga xosligi toʻgʻrisidagi qimmatli maʼlumotlar bayon qilingan.

Kalit soʻzlar. Turkiy xalqlar, manba, leksikografiya, yozuv, tematik guruhlar, kutubxona, asar, muallif, moʻgʻul, qipchoq, turkman.

Jafarov Botir Sattarovich

Professor of Namangan State University. Doctor of Science

THEORETICAL PROBLEMS OF RESEARCH OF ANCIENT TURKIC SOURCES

Abstract. This article presents valuable information on the emergence of the ancient Turkic people, the meaning of the word “Turk”, the emergence of the tradition of scientific study of the language and literature of the Turkic peoples, the formation of this tradition, the scientific activities of philologists who studied the classical Arabic language of philology, as well as the works of our great ancestors who created Turkish linguistics and especially in the field of lexicography.

Keywords. Turkic peoples, source, lexicography, writing, thematic groups, library, work, author, Mongolian, Kipchak, Turkmen.

Жафаров Ботир Саттарович

Доктор филологический наук, профессор Наманганский
государственный университет

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ИССЛЕДОВАНИЯ ДРЕВНЕТЮРКСКИХ ИСТОЧНИКОВ

Аннотация. В этой статье представлена ценная информация возникновения древнетюркского народа, значение слова «тюрк», возникновение традиции научного изучения языка и литературы тюркских народов, становление этой традиции, научная деятельность филологов, изучавших классический арабский язык филологии, а также труды наших великих предков, создавших турецкое языкознание и особенно в области лексикографии.

Ключевые слова. Тюркские народы, источник, лексикография, письменность, тематические группы, библиотека, творчество, автор, монгольский, кипчакский, туркменский.

Kirish

Turkiy xalqlar ogʻzaki ijodi, adabiyoti va qadimiy manbalari tarixining qadimgi davrlarini oʻrganishda turkiylar nomi bilan yuritiladigan hamda bugungi kunda mustaqqil millat sifatida shakillangan oʻzbek, qoraqalpoq, qirgʻiz, qozoq, boshqird, turkman, uygʻur, tatar, yoqut va boshqa shu kabi xalqlarning madaniyati, urf odatlari va adabiyotlariga murojaat qilish oʻrinlidir.

Markaziy Osiyoda qadimdan turli millat vakillari yashab kelgan. Bularning ichida turkiy xalqlar katta hududni egallab, Markaziy Osiyoning barcha joylarida juda qadimdan istiqomat qilib kelgan. Markaziy Osiyoning Movaraunnahr qismida ham qadimdan turkiy qabilalar yashab kelganligi haqida arxeologik materiallar va yozma manbalar guvohlik beradi. Shuning uchun bu zaminni VII asrdan boshlab “Turkiston” nomi bilan yuritilganligi soʻgʻdiy hujjatlardan maʼlum [21]. Avestoda Turkiston aholisi “tur” atalib, baʼzi bir tasavvurga koʻra, turk atamasidagi “k” tovushi eronliklar tilida tushib qolgan [11. B-1-5].

Xitoy olimi Yang Shengminning yozishicha, turk atamasi qadimgi xitoy manbalarida Xitoyning shimolidagi xalqlarga nisbatan ishlatilgan boʻlib, bu soʻz Xitoy iyerogliflarida “di”, “dingling”, “dili”, “chili”, “tili” atamalari sifatida talaffuz etilgan. Soʻng bu atamalar xitoy manbalarida “turk” deb talaffuz etilganligi maʼlum qilinadi [22. B. 174-184].

“Qadimgi turkiylarning yuzaga kelishi muqaddas kitoblardan biri “Bibliya”da, shuningdek, koʻplab afsonalarda Nuh paygʻambarning farzandi Yofas nomi bilan bogʻlanadi. “Bibliya”da Yofasning Goʻmer, Maʼjuj, Goʻmerning esa Ashkanoz ismli oʻgʻillari boʻlganligi koʻrsatiladi. Fanda Goʻmer turkiylarnig kimmer, Maʼjuj – Gog va Magoʻg, Ashkanoz – skif qavmlarining paydo boʻlishiga asos boʻlgani aytilgan. Tarix otasi Geradot (meloddan avvalgi V asr) “Tarix” asarining toʻrtinchi kitobida skiflar va ularga yaqin qavmlarning turmush tarzi, hayoti bilan bogʻlangan rivoyat hamda afsonalarni keltiradi, skiflarning forslar

bilan urushlarini ko'rsatadi. Bu davr tarixchilarining asarlarida turkiy qavmlar skif, kimmer, sak, massaget kabi nomlar bilan yuritilgan" [8. B-6.]. Qadimgi turkiylarning hayoti Ktesiy [12] (meloddan avvalgi V–IV asr), Xarez Metilenskiy [6. B-50.]. (meloddan avvalgi IV asr), Poliye [7] (meloddan avvalgi II asr), Strabon [18] (meloddan avvalgi I asr), Diodor [9] (meloddan avvalgi I asr) va boshqa antik tarixchilarning kitoblarida yoritilgan, rivoyat hamda afsonalarda keltirilgan.

Adabiyotlar sharhi

Qo'lyozmalarni tadqiq etish, uning til aspektlarini va so'zlarining o'ziga xos jihatlarini har tomonlama tahlil etish, ulardagi grafik xususiyatlarni va so'zlarning leksik o'ziga xosliklari bilan bog'liq tadqiqotlarning amalga oshirilishida jahon turkiyshunos olimlari barakali mehnat qilishgan. Bu borada Y.Klaprot, G.Kuun, V.Radlov, V.Bang, Y.Nemet, A.Samoylovich, D.Rasovskiy, S.Malov, K.Gronbech, G.Giorfi, A.Qurishjanov, A.Gabayn, A.Tittse, D.Monchizoda, A.Bodroglieti, V.Drimba, A.Chechenov, D.Dryull, L.Ligeti, A.Piemonteze, A.Garkavets, M.Argunshah., G.Go'ner, M.Salan, F.Shmayderlarning tadqiqotlari alohida e'tiborga molik.

Tadqiqot usullari

Maqolada qiyosiy-tarixiy, retrospektiv (o'tmish nuqtai nazaridan qarash), ekstrapolyatsiya (narsa va hodisalarning bir qismini kuzatish asosida olingan xulosalarni uning boshqa qismiga yoyish yoki tatbiq etish) kabi tadqiqot va tahlil usullari qo'llanilgan.

Bu tadqiqot usullari asosida qo'lyozmalarning topilish va o'rganilish tarixiga aloqador bo'lgan ayrim chalkashliklarga, uning turli fondlarda saqlanayonganligi bilan bog'liq tarixiy faktlarga aniqlik kiritilgan;

asarning birinchi qismini yozishda ishtirok etgan, ammo shu paytgacha e'tibordan chetda qolib kelayotgan bir necha xattotlar faoliyati, qo'lyozmadagi ayrim xato va kamchiliklarning yuzaga kelish sabablari yangi faktlar asosida dalilangan.

Tarixda “Turk” soʻzi bir qavmga mansub koʻplab xalqlarning umumiy nomi sifatida shakillandi. V asarga doir xitoy manbalarida “turk” soʻzi turkonliklar, turklar maʼnolarida qoʻllanilgan. Bu soʻz ot maʼnosida kelsa “kuch-quvvat”, sifat vazifasida kelsa “kuchli, quvvatli” maʼnosini bergan. Bundan tashqari u “yetuk”, “bilimdon”, “dono” kabi tushunchalarni ham ifodalaydi [8. B-6]. Dunyoning barcha kutubxonalarida turkiy xalq vakillari yaratgan qoʻlyozmalar va obidalarni saqlanayotganligi va ular dunyo tammaduniga beshik boʻlib xizmat qilayotganligini hisobga olgan holda yuqoridagi “yetuk”, “bilimdon”, “dono” kabi taʼkidlarni oʻrinli ekanligini his qilamiz.

Munozaralar va natijalar

Turkiy xalqlar tillari va adabiyotini ilmiy ravishda oʻrganish anʼanasining vujudga kelishi oʻrta asrlarga borib taqaladi. Bu anʼananing qaror topishida klassik arab filologiyasi boʻyicha tahsil koʻrgan filolog olimlarning ilmiy faoliyati katta ahamiyatga ega boʻldi [10. B-79.].

Tarixdan maʼlumki, arab filologlari yaratgan ilk asarlar bizgacha yetib kelmagan. Shu bois, klassik arab filologiyasining qaysi davrda paydo boʻlganligi toʻgʻrisida hali hanuz olimlar oʻrtasida bahs va munozaralar oʻz yechimini topgan emas. Bizgacha yetib kelgan manbalar va maʼlumotlar asosida klassik arab filologiyasi VII asrlarda paydo boʻlganligini anglash mumkin.

“Arab tilshunoslari, jumladan, arab filologlari VIII–XIV asrlarda tilshunoslik sohasida anchayin yuksak natijalarga erishdilar. Shuni alohida taʼkidlash kerakki, arab tilshunoslari Iso as-Sagʻofiy (VIII asr), al-Basriy Sibovayhiy (VIII asr), al-Mubarrad (IX asr), al-Dinavariy (IX asr), az-Zamaxshariy (XII asr), Abu Hayyon (XIII–XIV asr) kabi olimlar arab tili fonetikasi va grammatikasi haqida mukammal va izchil taʼlimot yaratdilar” [13. B-5]. Ular arab tilshunosligi ayniqsa lugʻatchilik sohasida ulkan yutuqlarni qoʻlga kiritdilar. Xalil ibn-Ahmad al-Farohidiy (VIII asr) “Qitob-ul-Ayn” lugʻatini yaratdi. Fonetik-fiziologik prinsipga asoslangan bu lugʻat arab leksikografiyasining ibtidosi hisoblanadi. Bu lugʻatning arab leksikografiyasi tarixida tutgan oʻrnini shundan bilish mumkin: Xalil ibn-Ahmaddan qariyb uch yuz yil keyin yashagan Mahmud

Koshg'ariy o'z asarini uning lug'atiga o'xshatib tuzish niyatida bo'lganini alohida ta'kidlab ko'rsatadi.

“Arab leksikograflari lug'atning xilma-xil turlarini ijod etdilar. Al-Asmaiy (IX asr) tematik lug'at, Abu Ubayda (IX asr) maqol va matallar lug'ati, Muhammad al-Anbariy (X asr) qarama-qarshi ma'noli so'zlar lug'ati, Abdulla ibn-Qutayba (IX asr) 12 tomli ensiklopedik lug'at yaratdi. XIV asrda yashagan mashhur filolog olim al-Feruzabodiy 60 tomli (ba'zi manbalarga qaraganda 100 tomli) ensiklopedik lug'at tuzgani haqida ma'lumotlar bor. Arab leksikografiyasining imomi nomiga sazovor bo'lgan Ismoil al-Javhariy (X asr) lug'atchilikda alfavit prinsipiga asos soldi. Uning 40 ming so'zlik lug'atida so'zlar o'zak oxiridagi tovushga (harfga) qarab joylashtirilgan” [13. B-5].

“Olimlar arab lug'atshunosligini uch maktabga bo'lib o'rganadilar. Bu maktabning birinchi yorqin namoyondasi **كتاب العين** – “Kitob al-Ayn” lug'atining muallifi Xalil ibn Ahmad bo'lib, u so'zlarni o'zaklar va ularning har xilligi asosida o'rganishni ishlab chiqdi. U izohli arab lug'atlarini o'zakka asoslangan usulga almashtirdi. Mazkur lug'atda u so'zlarni harflarning talaffuz o'rniga qarab joylashtirdi.

Xalil ibn Ahmadning bu usuli deyarli ikki asrdan ko'proq vaqt o'zgarmadi va ko'pgina lug'atshunoslar o'z lug'atlarini shu usul asosida tuzdilar. Al-Koliyning (901-967-milodiy yillar) **الكتاب الباري في اللغة** “Al-kitab ul-boriy fil-lug'ati”, Ibn Sidaning **المحكم في لغة العرب** “Al-muhkam fi lug'atil-arab”, Abu Mansur al-Azhariyning **تهذيب اللغة** “Tahzib al-lug'a” lug'atlari shular jumlasidandir.

Ikkinchi maktabga **كتاب المقاييز** “Kitabul maqaayiz” lug'atining muallifi Ahmad ibn Foris kiradi. U o'z lug'atida so'z tartibida avval birinchi, so'ngra ikkinchi va undan keyin uchinchi harflarni e'tiborga oldi. Ibn Duraydning “Al-jamhara” lug'ati shu usulda tuzilgan.

Uchinchi maktabga Ismoil al-Javhariy asos solgan. Javhariy lug'at tuzishda boshqa usul qo'lladi. Uning **الصحاح** “As-sihah” deb nomlangan yirik lug'atida so'zlarning oxirgi harfi tartibiga rioya qilgan holda joylashtirilgan.

“As-sihah” lug‘ati lug‘atchilik borasida yangi yo‘nalish bo‘ldi. Bu lug‘at 28 ta bobga bo‘lingandir. Mazkur lug‘at ma‘lumotlarning to‘liqligi va aniqligi bilan ajralib turadi. Javhariydan keyin Ibn Manzur (1232–1311-milodiy yillar) o‘zining لسان العرب “Lisanul Arab” lug‘atini shu tartibda tuzdi” [23].

Arab filologiyasi an‘anasining tashkil topishi va taraqqiy etishida, arablar bilan bir qatorda, boshqa xalqlarning vakillari ham ishtirok etgan. Arab xalifaligida arab tili faqat din tili bo‘libgina qolmay, shu bilan bir hatorda, adabiyot va fan tili ham bo‘lgan. Shuning uchun adabiyotda, fanda ma‘lum mavqega intilgan har bir kishi arab tilini mukammal bilishi va shu tilda ijod qilishi shart edi. Ingliz sharqshunosi Ye.Braunning “Eron adabiyoti tarixi” asarida ko‘rsatilishicha, islom madaniyatining “oltin davri” hisoblanmish Abbosiylar sulolasi hukm surgan davrda (749–846-yillar) arab fani va madaniyatining eng mo‘tabar vakillyri deb, sanalgan 45 kishidan 30 tasi boshqa xalqlarning vakillari bo‘lgan [13. B-5].

O‘rta asarlarda mahalliy xalqlar orasidan yetishib chiqqan olimlar arab filologiyasini o‘rganish bilan birgalikda boshqa xalqlar tili va adabiyotini o‘rganishda, xususan, turkiy xalqlar tili va adabiyotini o‘rganishda muhim rol o‘ynaganlar. Jumladan, turkiy qo‘lyozmalarning vujudga kelishida ham mana shu olimlarning ilmiy faoliyati katta ahamiyat kasb etadi.

Turkiy xalqlar orasidan yetishib chiqqan turkolog olim Mahmud Koshg‘ariy 1029–1038-yillar oralig‘ida Koshg‘arda tug‘ilgan. Uning otasi qoraxoniylar sulolasiga mansub bo‘lgan. Buni M.Koshg‘ariyning bobolari haqida aytgan gaplari ham tasdiqlaydi. M.Koshg‘ariyning yozishicha: uning bobolari turk shaharlarini somoniylardan tortib olgan qoraxoniylar sulolasiga asos solgan. Mahmud Koshg‘ariy Buxoro, Nishopur, Samarqand, Marv, Bog‘dod kabi shaharlarda tahsil ko‘radi, arab tilini, arab filologiyasi sirlarini puxta o‘rganadi. Lekin u umrini turkiy xalqlar va ularning tilini tadqiq etishga bag‘ishlaydi. U devonda shunday yozadi: – “Men turklar, turkmanlar, o‘g‘uzlar, chigillar, yag‘molar, qirqiz (qirg‘iz)larning shaharlarini, qishloq va yaylovlarini ko‘p yillar kezib chiqdim, Ularning lug‘atlarini to‘pladim, turli xil so‘z xususiyatlarini o‘rganib, aniqlab chiqdim” [16. B-44].

Asarning turk, o'zbek, uyg'ur, qozoq, ozarboyjon, ingliz, nemis, xitoy va rus tillariga tarjima qilingani bu qomusiy lug'atning ilmiy ahamiyati naqadar katta ekanligidan dalolat beradi. Rifat Kilisli [5], Atif Bey [4], Bosim Atalay [2], Tavfik Bey [3] tomonidan turk tiliga, Muxammad Fayziy, Axmad Ziyoiy va Ismoil Domulla Kashg'arli hamda o'n ikki tarjimon (Abdusalom Abbos, Abdurahim O'tkir, Abdurahim Habibulloxo, Abduhamit Yusufiy, Halim Solix, Mirxoji Usmon, Muxammad Niyoz, Sobit Ro'zi, Ibroxim Mutiy, Imin Tursun va Mirsulton Usmonov) tomonidan uygur tiliga [15], Ismoil Hikmat, Xolid Saidxo'ja tomonidan ozarboyjon tiliga, Askar Yegeubay tomonidan qozoq tiliga [14], Sayyid Muxammad Dabirsiyoqiy, Husayn Muhammadzoda Sodiq tomonidan fors tiliga, K.Brokelmann tomonidan nemis, R.Denkoff va J.Kelli tomonidan ingliz tiliga, A.Rustamov va Zifa-Alua Auezova tomonidan rus tiliga tarjima qilingan.

Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'ot it-turk" ("Turkiy so'zlar devoni", 1068) o'zbek tilidagi ilk nashri muallifi Solihqori Mutallibovga qadar K.Brokelmann, V.V.Bartold, S.Ye.Malov, K.K.Yudaxin, B.Atalay, A.Fitrat, B.Cho'ponzoda v.b. olimlar o'rganilgani ilm ahliga ma'lum. Asar Basim O'talay tomonidan "Devonu lug'ot it-turk"ning yozilish o'rni Bag'dod deb ko'rsatilib, 464/1068 (69)da boshlanib, ikki yil davomida 466/1071-yilda yozib tugallangani aytilgan [1].

Asarning Mahmud Koshg'ariy dastxati bilan yozilgan nusxasi Abbosiy xalifalari saroyida saqlangan, keyinroq xalifalik markazining Bag'doddan Misrga ko'chishi, Bag'dodda yuz bergan jangu jadallar natijasida yo'qolgan. Asarning bizga yetib kelgan yagona nusxasi Shom (hozirgi Suriya) mamlakatining poytaxti Damashq shahrida Muhammad ibn Abu Bakr ibn Abulfath as-Saviy ad-Damashqiy tomonidan 664/1266 sana 27 shavvol oyining 1-avgustida ko'chirib tugatilgan. Lug'at tuzilganidan qariyb 200-yil keyin ko'chirilgan bu nusxa, kotibning fikriga ko'ra, Mahmud Koshg'ariyning o'z qo'li bilan bitilgan qo'lyozma asosida kitobat qilingan. Qo'lyozma 638 betdan iborat bo'lib, har sahifada 17 satrlik matn mavjud. Qo'lyozma Istanbul (Fotih)dagi Millat kutubxonasida Ar.4189 raqami bilan saqlanadi.

“Devonu lug‘ot it-turk” asari dunyoga kelayotgan vaqtda turkiy xalqlar yashagan madaniy markazlardan yana biri bo‘lgan Xorazm viloyatining Zamaxshar degan qishlogida Mahmud ibn-Umar az-Zamaxshariy dunyoga keldi. U o‘z davri olimlari tomonidan “jorulloh” laqabini olgan. Olim sharqshunoslik fani va madaniyati taraqqiyotiga buyuk hissa qo‘shdi. U falsafa, tarix, adabiyotshunoslik, tilshunoslik kabi fanlarga oid ellikdan ortiq asar yaratgan.

O‘z davrining yetuk tilshunos olimlaridan biri bo‘lgan Mahmud Zamaxshariy arab tilshunosligi an‘analarini davom ettirdi, uning ilgor tamoiillari va usullaridan mohirlik bilan foydalandi. Masalan, qator asarlarida arab leksikografiyasining so‘zlarni lug‘atda tematik guruhlariga bo‘lingan holda joylashtirish uslubidan foydalangan. Mahmud Zamaxshariyning “Tog‘, manzil va suvlar” (“Al-jibol va-l-amkina va-l-miyoh”) nomli toponimik asari shu jihatdan xarakterlidir. Bu asarda arab tili leksikasiga oid geografik nomlar tematik guruhga ajratib izohlangan. Tematik guruhlariga bo‘lingan so‘zlar alfavit tartibi tamoyiliga asoslangan [13. B-5].

Lug‘atshunoslikdagi tematik guruhlariga ajaratish tamoyili Mahmud Zamaxshariyning “Muqaddimat-ul-adab” nomli asarida ham qo‘llangan. Ammo olimning bu asari sof lug‘at emas. Unda arab tilining grammatik strukturasi ham o‘z ifodasini topgan. Asar besh qismdan iborat:

- 1) ismlar (otlar);
- 2) fe‘llar;
- 3) ko‘makchilar (yordamchi so‘zlar);
- 4) ismlar (bu bo‘limda otlarning turlanishi)ning turlanishi;
- 5) fe‘llarning tuslanishi.

“Muqaddimat-ul-adab” asari faqatgina arab tili va arab tilshunosligi tarixini o‘rganish jihatidagina emas, balki turkiy xalqlar tillari tarixini o‘rganish uchun ham asosiy manbalardan biri ekanligi bilan ahamiyatlidir. Asarning lug‘at qismida ko‘pgina arabcha so‘zlarning forsha, mo‘g‘ulcha tarjimalari bilan bir qatorda, turkiycha (chig‘atoy) tarjimalari ham berib borilgan.

Asarda ismlar (otlar bo'limi) bir qancha tematik guruhlarga ajratilgan. Bular, o'z navbatida, yana kichik guruhlarga ajratilgan. Masalan, ismlarning hayvon nomlari qismi o'n bir kichik tematik guruhchalarga bo'lingan. Bu tematik guruhchalar asarda fasllar deb berilgan. Lekin fasllarning konkret nomlari keltirilmagan. Ularni shartli ravishda quyidagicha nomlash mumkin:

- 1) tuya nomlari (71 ta so'z);
- 2) tuya a'zolarining nomlari (25 ta so'z);
- 3) tuya jabdug'ining nomlari (32 ta so'z);
- 4) eshak va eshak jabdug'ining nomlari (42 ta so'z);
- 5) qoramol va qoramol a'zolarining nomlari (19 ta so'z);
- 6) qo'y va echki nomlari (42 ta so'z);
- 7) qo'y va boshqa hayvon nishon (belgi)larining nomlari (24 ta so'z);
- 8) jun nomlari (11 ta so'z);
- 9) yovvoyi hayvon nomlari (93 ta so'z);
- 10) ilon-chayon nomlari (59 ta so'z);
- 11) hasharot nomlari (52 ta so'z);

Mashhur sharqshunos V.V.Bartoldning ko'rsatishicha, Mahmud Zamaxshariy lug'atining turkiycha qismida XII–XIII asrlar O'rta Osiyo turkiy (chig'atoy) adabiy tilining leksikasi aks etgan [13. B-14].

“Mo'g'ullar istilosidan keyin turkiy xalqlarning adabiy jarayonlari asta sekinlik bilan arab mamlakatlariga, xususan, mamluklar davlati Misrga ko'cha boshladi va bu yerda oldindan yashab kelayotgan xalqlar: arablar, forslar, turkiylar bilan birga hayot kechira boshladi. Arab mamlakatlarida turkiy xalqlar mavqeining oshishi ularning tiliga qiziqishni yanada kuchaytiradi. Misrda turkiy tillarni o'rganish, ularni arab tiliga solishtirish va bir-biriga qiyoslash bo'yicha filologik asarlar, qo'llanmalar soni ko'payadi. Tarixiy manbalardan ma'lumki, Asiruddin Abu Hayyon al-Andalusiyy o'z davrining yetuk olimlaridandir” [17].

Asiruddin Abu Hayyon al-Andalusiyy 1256-yilda Ispaniyada tug'iladi. Abu Hayyon arab mamlakatlarida ko'p bo'ladi, U Misrda istiqomat qiladi va 1345-yilda Qohirada vafot etadi. Abu Hayyon tilshunoslik sohasi bo'yicha juda ko'plab

asarlar yaratdi. Uning uchta asari (ba'zi bir manbalarga ko'ra to'rtta asari) turkiy tillarga bag'ishlangan. Asiruddin Abu Hayyon al-Andalusi turkiyshunoslikka bag'ishlangan asarlaridan biri bu "Kitob al-idrok li-lison al-atrok" asaridir. Bu asar XIV asrning birinchi yarmida Misrda kitobat qilingan. "Kitob al-idrok li-lison al-atrok" asari qipchoq tilini o'rganuvchilar uchun mo'ljallab yozilgan amaliy qo'llanma bo'lib, unda turkiy tillar leksikasi va grammatikasiga oid qiyosiy ma'lumotlar ham bor. Asar ikki qismdan iborat bo'lib: birinchi qismi lug'at ikkinchi qismi grammatik qoidalarga oid ma'lumotlarni o'zida mujassam etgan. Lug'atda so'zlar alfavit tartibi tamoyili asosida joylashtirilgan. So'zning lug'atdagi o'rni so'z boshidagi ikki harf (tovush) asosida belgilangan. Lug'atda izohlangan so'zlarning aksariyati qipchoq tiliga oid bo'lishiga qaramasdan unda, turkman tiliga tegishli deb ko'rsatilgan so'zlar ham anchagina. "Mana shu faktga tayanib ba'zi tadqiqotchilar Abu Hayyonning bu asari qipchoq-turkman tiliga bag'ishlangan asar degan fikrni ta'kidlaydilar" [13. B-15].

"Kitob al-idrok li-lison al-atrok" asarida qipchoq va turkman tillariga oid so'zlar lug'ati hamda grammatik qoidalari bilan birgalikda bu ikki tilning fonetik xususiyatlari ham muqoyasa qilingan. Bu ikki tilning fonetik xususiyatlar sifatida quyidagilar berilgan:

- 1) so'z boshida **y** tovushi kelishi: *yip (ip), yilan (ilon)*;
- 2) **g** hamda **y** tovushlarining o'rin almashib kelishi: *egin – eyin (yelka)*;
- 3) **ğ** hamda **y** tovushlarining o'rin almashib kelishi: *bug'doy – buyday (bug'doy)*;
- 4) **ğ** hamda **y** tovushlarining o'rin almashib kelishi: *ögul – övul, äğuz – ävuz*;
- 5) **x** hamda **k** tovushlarining o'rin almashib kelishi: *xoja – koja (xo'ja)*

"Kitob al-idrok li-lison al-atrok" asarida turkman tiliga oid fonetik xususiyatlar sifatida quyidagilar ko'rsatiladi:

- 1) **m** hamda **b** tovushlarining o'rin almashib kelishi: *man – ban*;
- 2) **t** hamda **d** tovushlarining o'rin almashib kelishi: *tamir – damir, tulku – dilku* kabi.

Qadimgi turkiy manbalar yana biri lugʻatshunoslik ilmda oʻz oʻrniga ega boʻlgan qomusiy olim Jamoliddin at-Turkiy tomonidan kitobat qilingan “Kitob bulgʻot ul-mushtoq fil-lugʻot it-turk val-qifchoq” (“Turk va qipchoq tillarini xohlovchilar uchun mukammal kitob”) nomli asardir [19. B-151]. Ushbu qoʻlyozma muallifining tugʻilgan sanasi aniq boʻlmaganligi bois, asarning koʻchirilgan vaqtiga qarab XIV asrning oxiri va XV asrning boshida yashagan degan fikr mavjud. Jamoliddin at-Turkiyning yashagan manzili va uning boshqa asarlari haqida hech qanday maʼlumotlar yetib kelmagan. Turkiyshunos olim N.Baskakovning taʼkidlashicha, ushbu asar qipchoq va turkman tillarini xohlovchilar uchun qoʻllanma sifatida yozilgan. Asar qipchoq va turkman tilidagi soʻzlar (lugʻat) izohidan tashkil topgan. Asarning asosiy qismi soʻzlar izohidan (yaʼni lugʻatdan) iborat. Material toʻrt bobga ajratib berilgan [20. B-109].

“Kitob bulgʻot ul-mushtoq fil-lugʻot it-turk val-qifchoq” asari toʻrt bobdan tashkil topgan. Ular quyidagilar:

Birinchi bob: tangri va unga tobe boʻlgan samoviy jism va hodisalarning nomlari izohlangan: *tangri, farishta, quyosh, yogʻmir* va boshqa samo jismlari.

Ikkinchi bob: yer yuzidagi narsa-hodisalarning nomlari berilgan. Oʻz navbatida bu bob bir qancha fasllarga boʻlingan. Masalan:

2.1. joylarning nomlari: *qir, yor, yoʻl, oʻrmon*;

2.2. oʻsimliklarning nomlari: *ekin, bugʻdoy, arpa, noxat, kunjit*;

2.3. turli taom va masalliqlarning nomlari: *osh, yogʻ, bol, et*;

2.4. qarindosh-urugʻchilikka oid nomlar: *ota-ona, oʻgʻul, qiz*;

2.5. qushlarning nomlari: *kaklik, chipchaq*;

Uchinchi bob: *koʻmakchi tipidagi soʻzlar, ravish, olmoshlar*.

Toʻrtinchi bob: feʼl formalari va ularning tuslanishi berilgan.

Malmuk qipchoqlari tilida va arab yozuvida kitobat qilingan asarlardan biri bu “Kitob at-tuhfat uz-zakiya fil-lugʻat it-turkiya” qoʻlyozmasidir. Asarning muallifi, uning ismi, tugʻilgan va vafot etgan manzili hamda sanasi haqida hech qanday maʼlumot saqlanmagan. Qoʻlyozmaning yagona nusxasi bugungi kunda Istanbuldagi Valididdin afandi kutubxonasida saqlanadi. Muallif asar boshida

“Mendan (bu qo‘lyozmani yozishni) so‘raganlarga “ho‘p” deb va‘da qildim”, – deb o‘z dasxati bilan yozishicha, muallifdan mazkur asarni yozishni kimlardir so‘raganligini hamda asar muallifi yetuk filolog olimlardan biri ekanligini taxmin qilish mumkin.

“Kitob at-tuhfat uz-zakiya fil-lug‘at it-turkiya” asarini muallifning “Men bu asarni qipchoq tili (xususiyatlari)ga asoslandim. Chunki eng ko‘p qo‘llanadigan til qipchoq tilidir. Turkman tilini bu ishda bayon qilmadim. Faqat juda zarurat bo‘lgandagina ko‘rsatdim”, – deb yozgan izohidan asar qipchoq tili va grammatikasiga bag‘ishlanganligini anglash mumkin.

Muallifning ko‘rsatishicha, o‘sha davrda (XV asrda) turkiy tillarni o‘rganish sohasida muayyan ilmiy an‘ana mavjud bo‘lgan. Ushbu asar ham ana shu an‘ana tamoyili asosida yozilgan. Muallif bu asarini yozishda o‘zidan “oldin yozganlar tartiblariga muvofiq bo‘lishga” har jihatdan intilganini alohida ta‘kidlaydi [13. B-15].

“Kitob at-tuhfat uz-zakiya fil-lug‘at it-turkiya” ham o‘zidan oldin kitobat qilingan asarlarning tarkib va qonuniyatlariga tayangan holda yozilgan. Buning sabablaridan biri shundaki, Abu Hayyon o‘z asarlarida mamluk turkiylarining qipchoq-o‘g‘uz aralash tilini tadqiq etgan. Ushbu asarda ham qipchoq tili materiallari berilgan. Asar uch qismdan iborat:

Birinchi qism: *qisqacha kirish*;

Ikkinchi qism: *lug‘at*;

Uchinchi qism; *grammatikaga oid izohlar* qismi.

Lug‘atda kasb-hunar, savdo, ijtimoiy hayot, tafakkur, o‘simliklar, hayvonlar va boshqa sohalarga oid so‘zlar arab alfaviti harflari bo‘yicha boblarga ajratib izohlangan: hamza harfli (tovushli) so‘zlar, **ب** harfli (tovushli) so‘zlar, **ت** harfli (tovushli) so‘zlar kabi. Har qaysi bobda oldin otlar, keyin fe‘llar berilgan. Lug‘at yigirma bir bobdan tashkil topgan” [13. B-17].

Xulosa

Qo'lyozmalarning grammatikaga oid izohlar qismida qipchoq tili morfologiyasi va sintaksisi klassik arab tili asosida yoritib berilgan. Bundan aniq bo'ladiki, asar arab tilida so'zlashuvchi xalqlarga qipchoq, ya'ni turkiy tilni o'rganish maqsadida tuzilgan.

Dunyo olimlari yodgorliklarni mongorafik planda o'rganish bo'yicha bir qancha tadqiqotlar olib borgan bo'lishlariga qaramay, qo'lyozmalarning adabiy-lisoniy manba sifatida qiyosiy tahlillari va ularning mazvu ko'lami ancha katta. Asarlarning topilishi to'g'risidagi ma'lumotlarning xilma-xilligi uning tadqiq etish ishlar ko'lami hali juda ko'plab olimlar tomonidan o'rganish zarurati borligidan dalolat beradi.

Qo'lyozmalar tadqiqi bilan shug'ullangan sharqshunos olimlar o'z tadqiqotlariga kiritmagan ma'lumotlar asosida qo'lyozmalarning yozilgan sanalari va ularning manzillari bo'yicha yangi xulosalar chiqarish kun tartibida turgan dolzarb vazifalar belgilab olindi.

Adabiyotlar:

1. Atalay B. Divanü Lügat-it-Türk ve Tercümesi üzerine Notlar / Kaşgarlı Mahmud. Divanü Lügat-it-Türk (çeviri). Çeviren: Besim Atalay. 5.Baskı. Cild I. Ankara, 2006. S.XII.
2. ATALAY, Besim, Dîvânü Lûgat-it Türk Tercümesi, c. 3, Alâeddin Kırâl Basımevi, Ankara, 1941, 452 s.
3. Dîvânü Lûgati't-Türk Bilgi Şöleni Bildirileri 7–8 Mayıs 1999, Türk Dil Kurumu- TÜRKSOY, Ankara, 2000, 146 s.
4. Dîvânü Lûgat-it-Türk Dizini, Türk Dil Kurumu, Ankara, 1972, XXII + 168 s.
5. KAŞGARLI, Mahmud, Dîvânü Lûgati't-Türk (Tıpkıbasım), Kültür Bakanlığı Yayınları, Ankara, 1990, 628 s
6. Pearson, The Lost Histories of Alexander the Great, Philological Monographs 20, n.p., 1960, pp. 50
7. Polyaeni Strategematon Libri Octo; Second edition, revised and enlarged. Edited by A. Nefedkin. SPb: Eurasia, ISBN 978-5-8071-0502-8
8. Абдурахмонов А. Туркий адабиётнинг қадимги даври. Т., “Янги аср авлоди” 2005, 6-бет.
9. Диодор Сицилийский. Историческая библиотека / Пер. под ред. Э. Д. Фролова. — Т. I—III. — М.: Издательский дом «Рубежи XXI», 2021.
10. Звегинцев В. А. История арабского языкознания. Краткий очерк. М., 1958, 79.
11. Исҳоқов М. Номи азал Туркистон//Ўзбекистон адабиёти ва санъати газетаси, № 45-46, Т., 1993, 1, 5-б. Хўжаев А. Қадимий хитой манбаларидаги

- туркий халқларга оид айрим этнонимлар // Ўзбекистон ўрта асрларда: тарих ва маданият. Тошкент, 2003, 176-184-бетлар
12. Ктесий К. *Opus reliquiae. Fragmenta collegit.* MDCCCXXIV.
13. Қўчқортюев И. Исабеков Б. Туркий филологияга кириш. Ўқитувчи. Тошкент 1984. 5-бет.
14. Махмут Кашкари. Турк Создиги. Аударған, алғысозі мен ғылыми түсініктерін жазып, баспаға дайындаған А.Қ.Егеубай. Алматы, 1997.
15. Махмут Кашкари. Турки тиллер дивани. Чилд 1-3. Урумчи, Шинжан халқ наشريети, 1400-1403/1980-1984.
16. Махмуд ибн Хусайн Кошғарийнинг “Девону луғоти-т-турк” (“Туркий сўзлар девони”, 1068) ўзбек тилидаги илк наشري муаллифи С. Муталлибов. I жилд, 44-бет.
17. Расулова.Н.А. Абу Хаййан и его книга «Китоб ал-идрак ли-л-исан ал-атрак». Журн. «Обтеетвенные науки в Узбекистане» 1968, № 10.
18. Страбон. География / перев. на русск. яз. Ф. Мищенко. — М., 1879.
19. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси “Қ” ҳарфи 151-бет.
20. Файзуллаева Ш.А. Об арабско-кышчакском оловаре Джамал-ад-дина Абу Мухаммада Абу Аллаха ат-Турки. «Советс-кая тюркология», 1973. № 1, 109.
21. Хўжаев А, Хўжаев К. Қадимги манбаларда халқимиз ўтмиши. Тошкент, 2001.
22. Хўжаев А. Қадимий хитой манбаларидаги туркий халқларга оид айрим этнонимлар // Ўзбекистон ўрта асрларда: тарих ва маданият. Тошкент, 2003, 176-184-бетлар.
23. <https://arabic.uz/maqolalar/349-arab-lugatshunosligi.html>.